

## Xalq aytsa, qolib aytmas: Ko'prik qurgan savob ish

---



**Yaqinda Taxiýatosh tumanidagi 4 N-53 "4 K-4 Avtomobil yo'li Taxiýatosh tumani – Naymanko'I DFX-Turkmanston Respublikasi chegarasiga" avtomobil yo'lining 0-km.da joylashgan ko'prikda qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilayotgani haqida xabar bergan edik. Hozirda ushbu ko'prikda joriy ta'mirlash ishlari yakuniga yetgan.**

Xalqimizning "Yo'l qurgan, ko'prik qurgan savob" deganidek taxiýatoshlik yo'lsozlar tomonidan ushbu ezgu ish bajarildi. Ko'prikning ikki tomoniga xavfsizlik to'siqlari o'rnatilib, ko'prik usti plitalariga ishlov berildi. Mustahkamligini oshirish uchun beton quyilib, mahkamlandi va bir tekis asfalt yotqizildi.

Endi naymanko'lliklar behatar ko'prikdan foydalana oladi. Bu borada Taxiýatosh tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasining ishchilari fidokorona mehnat qilib, peshona terini singdirgan.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

Matbuot xizmati